


TARIX DARSALARIDA “FUTBOL” O’YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH



Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg'onan akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limni zamon talabi darajasida isloq qilishda uning sifatini oshirishda o'quvchilarни fanga, mavzuga qiziqtirishda diiqatini yig'ishda foya jihatlari ko'p hisoblanadi. Xususan, tarix fanida boblarni takrorlashda hamda oldingi yillardagi fan bo'yicha egallagan bilimlarini yodga olishda samarali usul sifatida keltirilgan.

Kalit so'z; “Futbol”, himoyachi, darvazobon, hujumlar yomg'iri, rag'bat, jarima.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosat darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Toshkentdagi Kongress-xollda parlamentga Murojaatnoma yo'lladi. U o'z chiqishida kelgusi 2023- yilgi «**Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili**» deb nom berishni taklif qildi. «Inson qadri degan g'oyani hech qachon unutmasligimiz kerak. Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili deb e'lon qilishimiz, agar buni chuqur tahlil qilsak, juda ko'p o'ylandik, nimalar qo'yish mumkin, deb. Albatta, kechagi qilgan ishimiz bilan bugungisining davomiyligi, bardavomligi bo'lishi kerak. Bardavomlik nuqtai nazardan, yana va yana Inson qadri degan g'oya yillarga qo'shilib davom etishi kerak. Shuning uchun „Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim“ deb nom qo'ydik», — deya tushuntirdi prezident. «Insonga qachon e'tibor bo'ladi? **Ta'lim, ta'lim, ta'lim va yana bir marta ta'lim.** Men olti yil oldin shu masalalarga chuqur e'tibor qilib, birinchi kundan beri ta'limimiz haqida ko'p gapiraman. Agar ta'lim bo'lsa, bilim bo'lsa, sifat o'zgaradi. Ta'lim bo'lmasa, sifat o'zgarmasa, e'tibor ham o'zgarmaydi», — dedi hurmatli yurtboshimiz Mirziyoyev.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan uzlusiz ta'lim tizimini isloq qilish, yangi avlod darsliklarini yaratish va uzlusiz ta'lim tizimini modernizatsiyalashda xorijiy tillami o'qitisib va o'rgatishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda pedagogika fanlarini o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlat ravnaqini belgilab beradigan asosiy omillardan biri kadrlaming o'z sohasi bo'yicha mukammal ta'lim

olganligi va uni amaliyotda qo'llay olishi, shaxsning ma'naviy yetukligi, o'zligini anglashi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak xislatlaming rivojlantirilganlik darajasi bilan bog'liq.¹

Bizga ma'lumki, tarix fani ham qiziqarli, insonning jamiyatdagi faoliyatidagi saboq olishida bir omil bo'lishi bilan birlgilikda, murakkab hamda ma'lumotlar va faktlarni xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bularni o'quvchilarga yanada qiziqarliroq va tushunarliroq bo'lishida turli dars usullaridan, yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday dars usullaridan biriga, xususan intellektual o'yin usullaridan biriga to'xtalmoqchiman.

"Futbol" o'yini texnologiyasi tarix fanini o'qitishda, o'quvchilarda xotira qobiliyatini kuchaytirishda va mavzuni biror bobini yoki bo'limini mustahkamlashda katta yordam beradi. Ushbu o'yin texnologiyalari o'qituvchining pedagogik mahoratini ko'rsatishda va albatta rivojlantirib borishda ahamiyatli hisoblanadi.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ulami egallash uchun nimalami bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlami puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlami boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash²

"Futbol" o'yini texnologiyasida o'quvchilarni ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo'lingan holda tashkil qilinadi. Guruhlarga nom beriladi. Masalan futbol bo'lganligi sababli yurtimizning jamoalari bilan nomlash mumkin, yoki vatanparlik timsoli

¹ Umumiyyatli pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurronova [va boshq.]. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 3 b.

² Umumiyyatli pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurronova [va boshq.]. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -229 b.

sifatida tarixiy shaxs, davlat va shaharlar nomi ham qo'yilishi mumkin. Ushbu o'yinda o'qituvchi hujum qiladi, ya'ni savollarni yog'diradi.

Guruhrlar birinchi navbatda darvazobon tayinlaydi. Darvazobon albatta guruhning eng kuchli o'quvchisi bo'lishi kerak. O'z navbatida 2-3 o'quvchi himoyachi pozitsiyasida bo'ladi. Jarayonga to'xtaladigan bo'lsak, o'qituvchi guruhning biror o'quvchiga avvalo o'tilgan mavzu bo'yicha savol beradi. Savollar kamida 10 ta beriladi hamda ketma-ketlik davomida boshqa mavzularga bog'lanishi mumkin. 10 dan ortiq savolga o'quvchi to'g'ri javob bera olsa, gol urgan hisoblanadi va jamoasini hisobda oldingaolib chiqadi. Hisob doskada yozilib boriladi. Lekin o'quvchi hujumlar yomg'ridagi biror savolga javob bera olmasa yoki noto'g'ri javob bersa, guruhda oldindan belgilanga himoyachilardan biri turadi hamda o'qituvchining savollariga javob berishda davom etadi. Unga ham 10dan ortiq savollar berilib, u hammasiga javob bera olsa, u gol urushi mumkin. Aksincha, u ham biror savolda to'xtasa, yoki noto'g'ri javob bersa, unda oxirgi imkoniyat darvazobon turadi. Darvazobon yuqorida aytalganidek, guruhning eng bilimdon o'quvchisi hisoblanib, unga ham savollar beriladi. E'tiborli jihat, o'qituvchi darvazobonga savollar ketma-ketligini murakkablashtirib boradi. Darvazobob hamma savollarga to'g'ri javob bera olsa, gol urushi aksi bo'lsa gol o'tkazib yuborishi mumkin. Jarayon bo'yicha keyingi jamoaga ham xuddi shu holatda davom etadi. Darsning belgilangan vaqt mobaynida ushbu o'yin davom etib, yakunda hisob bo'yicha o'quvchilar baholanadi. Qiziq jihat keyingi o'yin qachonligi, ya'ni biror bob tugashi bilan bo'lishi oldindan e'lon qilinishi sabbali, o'quvchilar o'sha davrgacha o'z ustilarida ko'proq ishlashi, bilimlarini kuchaytirishi, himoyachi hamda darvazobonni almashtirishi, eng asosiysi guruhrlar kimnidir qandaydir va'dalar evaziga transfer qilishi mumkin.

Ushbu musobaqada albatta chorak yoki semestr davomida o'tkazilib, ballar qo'shilib boradi. Yakunda jamoalarni o'rniga qarab ragbatlar, sovg'alar hamda jarimalar, jazolar berilishi mumkin.

Bunday dars usullari va texnologiyalari albatta o'qituvchining bilimi, zehni hamda tashabbuskorligini ko'rsatadi. Bu o'quv yurtida sinflar yoki boshqa guruhrlar ortasidagi musobaqaga ham aylanishi mumkin. Bu albatta darsga va fanga innovatsiyani hamda kreativlikni ko'rsatadi.

Innovatsion pedagogika - hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lган, бироқ кун саин бутунjahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning taiimiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar.³

³ R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, Umumiyyatpedagogika. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 174b

“Innovatsiya” so‘zi ingliz tilidan kelib chiqqan, uning tajimasi “yailgilanish”, “o‘zgartirish”, “yangilik kiritish” degan ma’noni bildiradi.⁴

Kreativ darsi ijodiy metodologik tuzilishiga ko‘ra an’anaviy darsdan farq qiladi va o‘zida dars maqsadini qamrab oluvchi bloklari bilan kreativ ta’limning maqsadlarini amalga oshiradi. Ijodiy darsning tuzilishi mantiqan ta’linmi haqiqatda rivojlantiruvchi jarayonga aylantirishni ko‘zda tutadi. Ta’limning birinchi navbatda insonparvarlik maqsadlarini ko‘zlagan holda ta’lim faoliyati tuzilishida ma’lum o‘zgarishlar olib boriladi.⁵

Demak, biz ushbu ulkan maqsadga erishimiz uchun ta’limni sifatini oshirish, bunga har bir o‘qituvchi yetuk salohiyatli bo‘lishi, o‘z fanini sevishi, ta’lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va texnologiyalarini mustahkam egallashi, xorijiy tillarni bilishi hamda rivojlangan davlatlarning ta’lim usullaridan xabardor bo‘lishi, bulardan milliyligimizga xoslarini keng tatbiq etishi, eng assosiysi o‘qituvchi yangilik yaratuvchi ijodkor bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent. O‘zbekiston. 2017
2. Mirziyoyev Sh. M 20-dekabr kuni Toshkentdagি Kongress-xollda parlamentga Murojaatnomasi
3. Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurronova [va boshq.]. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
4. R .A.M av lo n o v a , N.H.Rahmonqulova,Umumiy p ed ag o g ik a . -T .: « F a n v a texnologiya», 2018
5. Gazeta.uz

⁴ R .A.M av lo n o v a , N.H.Rahmonqulova,Umumiy p ed ag o g ik a . -T .: « F a n v a texnologiya», 2018,181 b

⁵ R .A.M av lo n o v a , N.H.Rahmonqulova,Umumiy p ed ag o g ik a . -T .: « F a n v a texnologiya», 2018,210 b